

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

YANGI O‘ZBEK SHE’RIYATIDA MEVALI DARAXT OBRAZLARI POETIKASI

Nafosat O‘roqova

*Buxoro davlat universiteti dotsenti,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

n.y.uroqova@buxdu.uz

ORSID: 0000-0003-4665-3325

***Annotatsiya.** Yangi o‘zbek adabiyoti har tomonlama: dunyoning badiiy manzarasini anglash, ifoda tarzi, mazmun va shakl, mavzu va g‘oya, obrazlar tizimi, badiiy til, uslub jihatdan yangilangan, takomil topgan badiiy tafakkur mahsulidir. Xususan, yangi o‘zbek she‘riyati olamning badiiy manzarasini aks ettirish uchun rang-barang obrazlardan unumli foydalandi. Mazkur maqolada floristik obraz sanaluvchi mevali daraxt timsollari tahlilga tortilgan. Ular ifodalagan ma‘nolarning mazmun-mohiyati ilmiy-nazariy dalillangan.*

***Kalit so‘zlar:** olamning badiiy manzarasi, yangi o‘zbek she‘riyati, obraz, ramz, floristik obraz, daraxt obrazlari, mevali daraxt obrazlari.*

Kirish. Ma‘lumki, adabiytoshunoslikda lirik tur alohida mavqe, alohida maqomga ega. Ko‘p asrlik ijodiy an‘analardan chekinmagan holda olamni yangicha ko‘rinishlarda anglash, unga novatorona yondashish hamda ifodalash yangi o‘zbek she‘riyatining asosiy xususiyatlaridan sanaladi. Ijodkorlar borliqni o‘z dunyoqarashlariga ko‘ra his qiladilar va uni badiiy bir topilma sifatida kitobxonlariga taqdim etadilar.

Olamning badiiy manzarasini ifodalashda daraxt obrazlarining alohida o‘rni bor. Floristik obrazlar qatorida ular ham she‘r mohiyatining ochilishida, badiiy maqsadning anglanishida, peyzaj yaratishda faol qo‘llaniladi. Har bir daraxt hayotiy ma‘nosidan kelib chiqib, turli ramzlarni, timsoliy mazmunni ifodalab keladi.

Asosiy qism. E.Vohidovning “Daraxtlar suhbatı” turkum she‘ri alohida diqqatga sazovor. Unda to‘rtta manzarali daraxt: qarag‘ay, terak, archa, majnuntol; oltita mevali daraxt: olma, o‘rik, shaftoli, yong‘oq, nashvati, gilos nomlari keltirilgan. Daraxtlarning har birini nomi sarlavhaga chiqarilgan va ular alohida she‘r tarzida yaratilgan. Demak, “Daraxtlar suhbatı” o‘nta kichik she‘rni o‘z ichiga oladi. Har bir she‘rda daraxtlar tilga kirib, o‘z xususiyatini namoyon etadi. Misralarga boshdan-oyoq tashxis san‘ati bilan zeb berilgan. She‘rlar tuzilishi jihatdan juda sodda, o‘qilishi ravon, uslubi – xalqona. Bir qarashda, bolalarga bag‘ishlanganga o‘xshaydi. Yodlashga osonligi, jumlalarning soddaligi, mazmunning umumiyligi fikrimizni dalillaydi. She‘rlardan ko‘zlangan asosiy maqsad bolalarga ona tabiatimizni tanishtirish, nabotot olamiga mehr-muhabbat uyg‘otish, atrof-muhitga ezgu munosatda yondashish tuyg‘ularini shakllantirishdan iboratdir. She‘rda har bir

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

daraxtning xususiyatiga ko‘ra yondashish ustunlik qilgan. Masalan, “Yong‘oq” she‘riga diqqat qarataylik:

Miya kabi
Shaklim bor,
Boshim to‘la
Aqlim bor.
Meni yegan
Donishmand
Bo‘lur degan
Naqlim bor [2,135].

Darhaqiqat, she‘rda yong‘oqning o‘ziga xos, alohida xususiyatlari bo‘rtib ko‘ringan. Naql qilishlaricha, yong‘oq miyaning rivojlanishida katta ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, uni yosh bolalarga ko‘proq yedirish kerak. Buni tib ilmi ham tasdiqlaydi. She‘rda yong‘oqning miya singari shakliy ko‘rinishga egaligi hamda tarkibida saqlovchi foydali moddalari inobatga olingan.

Cho‘lponning “Sirlar” she‘rida anor obrazi qiz portretiga chizgilar berishda tashbeh sifatida qo‘llanilgan:

Sochilgan sochingday sochilsa siring,
Anor yuzlaringni kimga tutasan?
O‘zing-ku “ularda vafo yo‘q!” deding,
Nimaga ularni tag‘in kutasan? [1, 79]

Bunda anor mevasining rangi inobatga olingan. Qiz yuzining qizilligi unga qiyoslangan. Ko‘rinadiki, she‘rda anor obraz darajasida shakllanmagan. Boshqa bir obrazning alohida jihatlarini yoritishda uning xususiyatidan foydalanilgan. Bunda badiiy tasvirning muhim elementlaridan biri tashbeh san’ati qo‘llangan. Misralarda alliteratsiyaning mavjudligi esa she‘rning yuqori pafos bilan o‘qilishini ta’minlagan.

Shavkat Rahmonning “Girya” she‘rida, o‘z nomi bilan aytganda, faryod, oh-u nola kabi ma’nolar ifoda etilgan. Unda oh-u faryod qatorida qarq‘ish ham ko‘zga tashlanadi:

Anorday sochilgan qonlar kimniki,
bu qonli bilaklar,
qo‘llar kimniki?!
Vahshat kechasida dillar to‘kildi,
Yuz ming bag‘ri vayron birdan o‘kirdi,
jasadga yolg‘ondan kafan to‘qildi,
juvonmarg bo‘lgurlar,

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

jo‘marding bormi?! [9, 206]

She’rda anor obrazi qo‘llangan. Odatda, bu meva rangining qip-qizilligi qizlarning qirmizi yuziga qiyoslanadi. Binobarin, ushbu she’rda ijtimoiy g‘oyalar aks etganligini inobatga olsak, u lirik qahramonning qonga to‘lgan paymonasini ifodalab kelgan. Mazkur she’rda anorning ikki xususiyatiga diqqat qaratilgan: 1. Rangining qizilligi. 2. Donalarining sochilib ketishi. Shunga ko‘ra shoir o‘zi yashagan tuzumdagi xunrezliklarga urg‘u beradi. Erk deya boshini ko‘tarib chiqqan mardlarning yoppasiga qatl qilinishi, ayrim mahalliy amaldorlarning o‘z jonini saqlash maqsadida buni ko‘rib-ko‘rmaganga olishi shoir yuragini junbushga keltiradi. Vatan ozodligi yo‘lida shahid ketganlarning jasadlari, shoir ta’kidlaganidek, yerga sochilgan qip-qizil anor donalari singari salbiy taassurot uyg‘otadi. Zero, mazkur she’r ushbu jirkanch holatga, unga loqayd qaraganlarga qarshi ko‘tarilgan isyon tarzida bitilgan, deyish mumkin.

Oybek nazdida, bahor olmaning xushbo‘y oq gullari bilan boshlanadi. Uning “Ko‘klam hislari” she’ri ona yerning mo‘jizaviy tabiati tasviri bilan ibtido topgan. Keying bandlar esa ijtimoiy mazmun kasb eta borgan:

Boshimda olmaning xushbo‘y oq guli,
Ulug‘ yerni quchib yotibman uyg‘oq.
Qulochim yetmasa qalbim yetkusi,
Insonning qalbiga quyosh jinchiroq? [4, 25]

She’rda Oybekning yangi badiiy topilmasi bor: u bahor kelishi bilan daraxtlarning qiyg‘os gullashini boda tutgan qadahchalarga qiyoslaydi. Ko‘klamning, hayotning sog‘ligi sharafiga ko‘tarilgan qadahchalar... Zero, muqaddas zaminning har bir zarrasi tinchlik uchun, sog‘lom hayot uchun bayot to‘qiydi. Tabiat bag‘rida sokin borliqdan bahra olayotgan lirik qahramon ham ona yurtining go‘zalligi, tinchligi, farovonligi uchun shukrona keltiradi. Erkin, ozod qush kabi dalalarda mehnat qilish, manglaydan ter to‘kib xalq uchun, qolaversa, ezgulik uchun xizmat qilishni o‘ziga sharaf deb biladi. Mazkur she’rda chuqur lirizm va ijtimoiy mazmunning uyg‘un holda kelganligini ko‘rishimiz mumkin.

Maqsud Shayxzodaning “Olma” nomli she’rida bosh qahramon o‘zbekning iboli kelinchagidir. Unda qizil olma xalq qo‘shiqlari hamda mumtoz lirikadagi singari muhabbat ramzini ifodalab kelgan:

Bu kun bog‘dan bir qizil olma,
Olmalardan eng asil olma,
Uzib qaytib keldi uyga u,
Gul ko‘tarmish go‘yo bir ohu.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Istar edi bu ol mevani

Bir kun yesin jondan sevgani! [3, 97]

She’rda qarama-qarshi kuchlar, bir-biriga zid hissiyotlar to‘qnashuvi yuzaga kelgan. Yosh kelinchak urushga ketgan yori uchun o‘z bog‘idan qizil olmalarni uzib, ularni ipga ilib qo‘yadi. Ammo mash‘um qoraxat uning barcha orzularini yo‘qqa chiqaradi. She’rda kelinchakning oh-u voh qilib, o‘z dardiga o‘ralashib qolgani tasvirlanmaydi. Aksincha, u yorining o‘chini olish uchun qaror qiladi. She’rda o‘sha davr yoshlarining qalbida urushga bo‘lgan cheksiz nafratini his qilamiz. Olma obrazi mazkur g‘oyani ochishda vosita vazifasini bajargan.

Omon Matjon ijodida ham olma o‘zining an’anaviy ma’nosini yo‘qotmagan. Har satri “O‘rtamizda birgina olma” misralari bilan boshlanuvchi to‘rt banddan iborat she’rda oshiq va ma’shuqa o‘rtasida olma obrazi turadi:

O‘rtamizda birgina olma,

Yarmi qizil, yarmi och-yashil.

Har tug‘yonidan qizil u,

U sog‘inchning ramzidir asil [5, 43].

Nega uning yarmi qizil, yarmi och-yashil holatda tasvirlanganligi e’tiborni tortadi. Qizil, alvon rang – iffatni, och-yashil rang esa tashnalikni ifodalaydi. Ko‘rinadiki, oshiq ma’shuqa visoliga hamisha intiq. Ammo ularni hayo pardasi to‘sib turadi. She’rda lirik qahramonning o‘zi olmani sog‘inch ramzi, deya ataydi.

H.Olimjonning “Bahor” she’rida mevali daraxtlardan o‘rik guli tilga olingan. Bahorning farahbaxsh tongi, salqin sahari obrazli ifoda etilgan. Bunda yel va tun timsollarini shaxslantirish orqali badiiy jihatdan mukammallikni ta’minlashga erishilgan:

Tinmay esar har tomonga yel,

Qo‘ymay sochar o‘rikning gulin.

Daraxt shoxlarini silkitar,

Uyg‘otishga boshlar uni tun [11, 66].

Yoki:

Terazamning oldida bir tup

O‘rik oppoq bo‘lib gulladi... [11, 212]

Ko‘ramizki, H.Olimjon o‘rik gullarining oshig‘i bo‘lgan. Buni shoirning turmush o‘rtog‘i, shoira Zulfiyaxonim ham “Bahor keldi seni so‘roqlab” she’rida “O‘rik gullarining eding maftuni” [9, 77] misrasi bilan tasdiqlaydi. H.Olimjonning bahor tasviri chizilgan, o‘rik gullari iforini taratgan she’rlarining aksariyati peyzaj lirikasining noyob namunalari safida turadi.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Zulfiya ijodida H.Olimjonga taqlidan o‘rik gullarining poetik tasviri chizilgan she’rlar анчагина. Buni shoironing turmush o‘rtog‘i, hammaslagiga sadoqati, muhabbatining ramzi sifatida qabul qilsak xato bo‘lmaydi:

Sen kuylagan o‘rik shu kecha
Burkandi oq-oppoq chechakka.
Men qadrdon xotira bilan
Jo‘nab ketdim uyimga yakka [9, 93].

Bunday she’rlar hijron lirikasiga mansub. Ularda sog‘inch ruhi ustuvorlik qiladi. Shoira bahordan, o‘rik gullaridan H.Olimjonning ruhini qidiradi va izlagan narsasini topgandek ko‘ngliga tasalli inadi. Shoira nazarida, bahor va o‘rik gullari unga umidini, ilinjini, qolaversa, muhabbatini qaytarib bergandek bo‘ladi. Zulfiya she’rlari mana shunday inja tuyg‘ular tarannum etilgan ma’naviy xazinadir.

Ma’lumki, xalq lirikasida shaftoli “begona” ma’nosida keladi: Olmali boqqa kirib, Shaftolini dermu kishi. O‘z yori uyda turib, begonani dermu kishi. Cho‘lponning shaftoliga bag‘ishlab yozilgan “Shaftoliga” nomli she’ri bor:

O‘n sakkizga kirgan qishloq qizlarining yuzidek
Qip-qizargan yuzlaringdan bir o‘pish ber, shaftoli!
Senga qarab turganimda bir ozgina bo‘lsa ham
Bo‘lmas kabi, yo‘q kabidir... umidimning zavoli! [1, 69]

Bu she’rda esa shaftoli obrazi ijtimoiy mazmun kasb etgan. Mazkur obraz yurtning ozod istiqboli ramzini gavdalantirgan. Shu bilan birga, bunda qip-qizil rang: 1. O‘n sakkizga kirgan qishloq qizlarining yuziga; 2. Umidning zavoli sabab ko‘zning qonli yoshiga; 3. Shahid bo‘lgan oshiq yigitning yesir ruhi qoniga qiyoslanadi. O‘z-o‘zidan ma’lum bo‘ladiki, she’rda global ijtimoiy masala qalamga olingan. Ya’ni, yurtni ozod, hur ko‘rish tilagi lirik qahramonning kundalik-maishiy turmushida ham aks etgan. U shaftoliga ko‘zi tushishi bilanoq mana shunday erk g‘oyalariga yana asir bo‘ladi va uni she’rga solib fig‘on chekadi:

Mayli, sevgan oshiqlaring yuzlaringga to‘ymasin,
Lekin raqib lablaringga lablarini qo‘ymasin,
zaharini quymasin!.. [69]

Mazkur misralarda ham tilak-istak, ham isyon ruhi barq urib turibdi. Darhaqiqat, mazkur she’r tom ma’noda, vatanparvarlik tuyg‘usi bilan sug‘orilgan asarlardan biri hisoblanadi. Zero, Cho‘lpon shu va yana boshqa ko‘plab she’rlarida erk kuychisi sifatida ko‘rinadi.

Shoir G‘.G‘ulomning “Yoz boshi” nomli she’ri bahorning oxiri, yozning ilk odimlari yaqinlashgan may oyida pishuvchi mevalarga bag‘ishlab yozilgan. Unda

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

qulupnay, gilos, olcha, o‘rik nomi keltiriladi. She’rda o‘zbek bog‘ining umumiy manzarasi gavdalanadi. Bundan tashqari, mehmondo‘st o‘zbekning dasturxonini to‘ldirib turuvchi, “ilik uzildi” davrida jonga oro beruvchi tut mevasiga atalgan satrlar alohida diqqatga sazovordir:

Farg‘ona «marvartak» der, toshkentliklar
«Balx tuti»,
Marvarid rang bu ne‘mat ro‘zg‘or tebratadi.
Bir tup azim tut demak – bog‘ning baraka quti,
Eksang, sendan qolajak yodgorlik abadiy [16, 236].

Bugungi kunda biroz e‘tibordan chetda qolgandek tuyuluvchi tut mevasi qadimda xalqimizning asosiy ozuqa manbasi sanalgan. Tibbiyotda mevasidan, tanasidan esa yog‘och o‘ymakorligida unumli foydalanishgan. O‘z soyasi bilan insonlarga nafi tegib, uni issiqdan saqlaydi. Bu daraxt ko‘p yillik hisoblanadi. Urbanizatsiya natijasida tutning ko‘pgina navlari yo‘qolib bormoqda. Shoir she’ri orqali muruvvatli ona xalqimizning mehmondo‘stligi va bag‘rikengligiga, serquyosh o‘lkamizning Alloh nazari tekkan mo‘jizaviy yurt ekanligiga ishora qiladi. Uning har bir ne‘matini muqaddas deb biladi.

E.Vohidovning to‘rt satrdan iborat “Bodom va odam” she’ri o‘zining chuqur falsafiylikka yo‘g‘rilgani bilan diqqatni jalb qiladi:

Bodom odamga o‘xshar,
Navbahorni suyadi.
Odam bodomga o‘xshar,
Erta gullab qo‘yadi [2, 636].

Ma’lumki, she’r hajmi juda qisqa. Sodda va ravon uslub unda hukmron. Bir banddan iborat she’rda bodom va inson obrazlari parallel qo‘yilgan. Dastlabki ikki misrada bodomning ko‘klamni sog‘inib kutguvchi insonga qiyoslanishi bahorda uning ilk darakchisi bo‘lib kelishi bilan dalillangan. Keyingi ikki misrada esa odamning bodomga o‘xshatilishiga diqqat qaratiladi. Bunda uning “erta gullab qo‘yishi” jihatidan tenglashtirish mavjud. “Gullab qo‘ymoq” iborasi g‘ayrushuriy ravishda sirini ochib, aytib qo‘ymoq ma’nosini beradi. Demak, bodomning erta gullashi insonning sir saqlay olmay, darrov sotib qo‘yishiga qiyoslangan. Sir saqlay olmaslik yomon illat sifatida qoralangan.

S.Sayyidning “Bahor Surxondan boshlanar” manzumasi ayni bugungi kunimiz haqida bitilgan zamonaviy bir asar. U o‘ziga xos badiiy xususiyatlari, tili, tasvir vositalari va shakl-u ohangi bilan ajralib turadi. Ushbu she’rda Vatan va bahor mavzusi uyg‘unlashib ketgan:

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Bu tong Boysundagi
Tog‘lardan enib,
Bir yel bir sevinchni
Yetkizdi kelib.

Kech payt “Axborot”da
Shu bo‘ldi takror:

“Surxonda bodomlar
Gulladi. Bahor”

Bandning dastlabki misralari tashxis san’ati bilan ziynatlangan. Zero, bahorning tashrifi, avvalo, shamolning mayin esishida namoyon bo‘ladi. Shu bois shoir tog‘lar osha esayotgan shabadani jonlantiradi. Ya’ni bahor tashrifini shamol yetkazdi, deydi. Ayni paytda, Surxon vohasi respublikamizning janubida joylashgan. Shuning uchun bodomlar dastlab shu yurtda gullaydi. Rutubatli qishdan so‘ng bahorning kirib kelishi qalblarni cheksiz sevinchga to‘ldiradi. Shu ma’noda she’r milliy ruh bilan sug‘orilgan. Ma’lumki, loysuvoq tomlarda dastlabki binafshalar ildiz otadi. Shoir shuning uchun sog‘inchlari gullagan diyori – onasining ayvonidan ko‘klamning tashrif buyurganini his qiladi.

Akademik shoir G‘.G‘ulomning “Bizning uyga qo‘nib o‘ting, do‘stlarim” she’rida bag‘rikeng o‘zbek o‘g‘loni obrazi qiyofasi tasvirlangan. Bu shoirning aynan o‘zidir. Chunki unda G‘afur G‘ulom o‘z nomini to‘liq tilga olgan. She’r xuddi yuqorida tahlil qilganimiz “Yil boshi” she’rining mantiqiy davomiga o‘xshaydi. Faqat bunda o‘zbek xonadonining to‘liq bo‘y-basti keltirilgan, ya’ni uning umumiy tashqi manzarasi chizilgan. O‘zbek dasturxonining tasvirida esa sarxil mevalarning rang-tusi, ta’-mazasi ko‘z oldingizga kelib, ifori dimoqqa urilgandek bo‘ladi:

Dasturxonda mevalarning turi ko‘p,
Barisi pok, shabnamday toza, mahbub,
Uzum, anjir, shaftoli der: meni o‘p,
Shu qovunni so‘yib eng rohat qilib,
Bizning uyga qo‘nib o‘ting, do‘stlarim! [16, 163]

Demak, mazkur she’rda farovon yurtimiz jamoli, uning majtunkor tabiati, sarxil mevalari, o‘zbek millatining bag‘rikengligi kabi tushunchalar o‘zini to‘la namoyon eta olgan. Bunda mevali daraxtlarning ishtiroki tasvirning yorqin ifodalanishida muhim rol o‘ynaganini ta’kidlash joiz.

Xulosa qilib aytganda, manzarali daraxt obrazlari singari mevali daraxt obrazlari ham yangi o‘zbek she’riyatida faol qo‘llangan. olma bahor (Oybek), muhabbat (Maqsud Shayxzoda), sog‘inch (Omon Matjon), o‘rik guli bahorning

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

farahbaxsh tongi, salqin sahari (H.Olimjon), sadoqat, muhabbat (Zulfiya), shaftoli yurtning ozod istiqboli (Cho’lpon), tut ona xalqimizning mehmondo‘stligi va bag‘rikengligi (G’.G‘ulom), bodom inson (E.Vohidov), bahorning tashrifi (S.Sayyid), uzum, anjir, shaftoli to’kinlik (G’.G‘ulom) ramzlarini bildirib kelgan.

Yangi o‘zbek she’riyatida olamning badiiy manzarasini floristik obrazlar orqali ifodalash yo‘sinida yozilgan she’rlarning aksariyati sof lirika namunalari. Ular, o‘z navbatida, peyzaj lirikasi hamdir. Bunda nabotot olami go‘zalligidan zavq olish, shu orqali uni she’rxonga his qildirish, tanishtirish maqsadi ustun turadi.

Adabiyotlar:

1. Abdulhamid Cho’lpon. Binafsha. – T.: Adabiyot, 2021. – 79 b.
2. Воҳидов Э. Танланган асарлар. – Т.: Шарк, 2018. – 51.
3. Мақсуд Шайхзода. Чорак аср девони. Танланган асарлар. – Т.: Бадий адабиёт нашриёти, 1958. – Б. 97.
4. Ойбек. Созим. Шеърлар. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – Б. 48.
5. Омон Матжон. Мақсудам. Шеърлар. – Т.: Adabiyot, 2021. – Б. 15.
6. Орипов А. Танланган асарлар. Еттинчи жилд. Шеърлар, дoston, мақолалар, суҳбатлар, қайдлар. – Т.: Ф.Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2013. – В. 46.
7. Орипов А. Танланган асарлар. Тўрт жилдлик. Иккинчи жилд. Шеърлар ва дostonлар. – Т.: Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2013. – В. 14.
8. Сирожиддин С. Сўз йўли: Танланган асарлар. Икки жилдлик. 1-жилд. – Т.: Шарк, 2008. – Б. 215.
9. Зулфия. Асарлар. Икки томлик. Биринчи том. Шеърлар. – Тошкент: Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – Б. 217.
10. Шавкат Раҳмон. Сайланма. – Т.: Шарк, 1997. – Б. 206.
11. Ҳамид Олимжон. Мукамал асарлар тўплами. Ўн томлик. Биринчи том. Шеърлар. – Т.: Фан, 1979. – Б. 212.
12. Yoriyevna O. N. et al. ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATIDA FLORISTIK OBRAZLAR TALQINI //SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2024. – Т. 2. – №. 24. – С. 26-32.
13. O'roqova Nafosat Yoriyevna. (2024). ZAMONAVIY SHE'RIYATDA LOLA VA LOLAQIZG'ALDOQ OBRAZLARINING RAMZIY IFODALARI. *Hamkor Konferensiyalar*, 1(2), 223–228. Retrieved from <https://academicsbook.com/index.php/konferensiya/article/view/167>
14. O'roqova, N. (2024). ABDULLA OROPOV LIRIKASIDA RAMZIY-FLORISTIK OBRAZLAR IFODASI. *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 1(3), 193-199.
15. O'roqova, Nafosat, Hayot Latipov, and Nigora Normuratova. "The role of flora and fauna in expressing the artistic view of the universe." *E3S Web of Conferences*. Vol. 587. EDP Sciences, 2024.
16. Фафур Фулом. Мукамал асарлар тўплами. Учинчи том. Шеърлар. – Т.: Фан, 1984. – Б. 236.